

TIBBIY KIMYO FANI MISOLIDA TALABALARING O`QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Safarova Nafisa Sulaymonovna
*Buxoro davlat tibbiyot instituti,
Tibbiy kimyo kafedrasi assistenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning matnli axborotni o`zlashtirish, zaruriy axborotni ajratib olish, tushunish, eslab qolish kabi muhim kognitiv xususiyatlarini o`qish savodxonligi orqali rivojlanadirish haqida ma`lumot berilgan. Bunda matnni o`qish, undagi ma`lumotlarni qay tarzda va tartibda o`zlashtirish kerakligi haqida yoritilgan. Shuningdek, tibbiy kimyo fani doirasida namunaviy matn va savollar berilgan.

Kalit so`zlar: O`qish savodxonligi, matn bilan ishslash, kognitiv xususiyat, elektr toki diagnostikada va davolashda, elektroforez, fizioterapiya.

Bugungi axborot asrida talabalarning olgan bilim va ko`nikmalarini asosida ularni matn bilan ishslash va tabiiy fanlarni o`zlashtirganlik kompetensiyalarini tekshirish juda muhim ko`rsatkichlardan biri bo`lib turibdi. Ta`limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu talabalarni matnni o`qish, kerakli axborotni ajrata olish, bilim va ko`nikmaga aylantirish kabi qobiliyatlarini belgilovchi o`qish savodxonligi hisoblanadi [1]. Faqatgina mana shu bosqichda inson shaxsi shakllanadi va uning kelajakdagi ilmli inson bo`lib yetishishida eng muhim bo`g`in bo`lib qoladi [2].

Tabiiy fanlarni o`zlashtirganlik darajasini bilish uchun esa hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirib bera olish, berilganlarni ilmiy jihatdan talqin qilish, ma`lumotni tushunish va tahlil qilish kabilalar tekshiriladi.

Matnni o`qish va undagi axborotni umumlashtirish bu murakkab kognitiv jarayondir. O`qish savodxonligini baholashda eng muhim sanalgan uch guruh qobiliyatlar farqlanadi: aniqlash va ajratib olish (axborotni), aloqadorlikni topish va izohlash (xabarni), tushunish va baholash (xabarni).

Tibbiyot oliy o`quv yurti talabalari uchun muhim sanalgan yuqoridagi ko`rsatgichlarni rivojlanadirish har bir professor-o`qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Tibbiy kimyo kafedrasi o`qituvchilari ham Tibbiy kimyo fanining mavzulari kesimida turkum matnlar to`plami va ularga asoslangan savollarni ishlab chiqishdi va amaliyotga tatbiq etishni boshlashdi. Quyida shunday matnli topshiriqlardan keltirib o`tamiz.

Topshiriq. Quyidagi berilgan matnni diqqat bilan o`qib chiqing va tegishli savollarga javob bering.

Elektroforez

Elektroforez fizioterapiyaning bir usuli bo`lib, unda organizmga doimiy elektr toki ta`sir ettirilib dori vositasi mahalliy uzatiladi. Elektrodlarni qo`llash dori vositasi ionlarini to`qimalarga xirurgik aralashuvlarsiz uzatishga yordam beradi. Elektroforez bu THT (tayanch harakatlanish tizimi) ni davolash va oldini olish va sog`lik bilan bog`liq bo`lgan turli muammolar yechimidir.

Jarayonni amalga oshirish uchun odatda (har doim ham emas) doimiy va uzlusiz galvanik tok ishlataladi. Uning bir qator ta`sirlari mavjud:



-
-
- Yallig`lanishga qarshi Oq`riqsizlantiruvchi Tiklovchi
- Metabolik (almashinuv jarayonlarini tezlashtirish) Tinchlantiruvchi (mushak tonuslarini pasaytiruvchi);

Organizmga dori vositasisiz faqatgina tok ta`sirida o`tkaziladigan jarayonga galvanizatsiya deyiladi. Agar uning ta`sirini kuchaytirish maqsadida dori vositalari ham qo`shilsa, u elektroforez deb nom oladi.

Elektroforez amaliyoti yallig`lanish, infeksiyali kasalliklar, sinish va boshqa holatlarda buyuriladi. Ayniqsa, quyidagi holatlarda ko`proq qo`llaniladi:

Periferik asab tizimining kasalliklari (radikulit, funikulit, pleksit, nevritlar, vaskulit) va markaziy asab tizimining kasalliklari (meningit, meningoensefalitlar, ensefalit, ensefalopatiyalar, bosh miya jarohatlari va miyada qonaylanishining buzilishi).

- Nevrasteniya, nevralgiya va nevrozlarda Oshqozon-ichak kasalliklarida Qftalmologik, stomatologik, LOR kasalliklarining yallig`lanishidava infektion kasalliklarida

Elektroforez fizik-kimyoviy hodisalarga asoslangan. Qo`llaniladigan preparat bilan maxsus mato qoplamlari elektrodlarga qo`yiladi. Keyin elementlar tananing kerakli joyiga o`rnatiladi, qurilma ishga tushiriladi va dori ionlarining to'qimalarga harakati boshlanadi. Jarayonning davomiyligi taxminan 10-15 daqiqa. Hech qanday yoqimsiz holatlar kuzatilmaydi.

Ektroforezning foydali tomonlari:

- dori vositalarini aniq mo`ljallangan joyga yetkazib berish;
- noinvazivlik va xavfsizlik;
- dori-darmonlarni qabul qilish zarurati yo'qligi sababli jigarga yukni kamaytirish;
- samaradorlik;
- hamyonbop narx.

Jarayon homiladorlik, onkologiya, teri kasalliklari, gematopoetik kasalliklar va otoimmün kasalliklarni o'z ichiga olgan kontrendikatsiyaga ega.

Matn yuzasidan savollar:

1. Elektroforez dori vositalarisiz qo`llaniladigan fizioterapiya usulidir.
A) To`g`ri; B) Noto`g`ri; C) Berilmagan.
2. Elektroforez yordamida amalga osshiriladi (to`g`ri javobni tanlang):
A) mushaklar elektromassaji;
B) dori vositasini organizmga yuborish;
C) to`qimalar mikromassaji;
D) mahalliy harorat oshiruvchi.
3. Elektroforezda doimiy va galvanic tok ishlataladi.
A) To`g`ri; B) Noto`g`ri; C) Berilmagan.

4. Elektroforezda kuchlanishi 60-80 Vt va 50 mA tok kuchiga teng bo`lgan tok o`tkaziladi.

- A) To`g`ri; B) Noto`g`ri; C) Berilmagan.

5. Elektroforez yordamida organizmning —ortiqcha moddalardan tozalovchi apparati - jigar nagruzkadan xoli bo`ladi.

- A) To`g`ri; B) Noto`g`ri; C) Berilmagan.

Yuqorida keltirilgan matnlardan auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg`ulotlarda va mustaqil ishlarda foydalanish mumkin. Bu talabalardagi o`qib tushunish, axborotni keraklisini ajratib olish kabi muhim ko`nikmalarni rivojlantiradi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ковель М. И. Задания к предметному тексту по химии для развития у обучающихся читательской грамотности //The scientific heritage. – 2020. – №. 48-4. – С. 31-36.
2. Сахабиева А. М. Формирование читательской грамотности на уроках химии //психологические и педагогические основы интеллектуального развития. – 2021. – С. 84-86.
3. Сафарова Н. С. Некоторые методические рекомендации по организации занятий фармацевтической химии //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 286-291.